



Bolalar musiqa va san'at maktablarida xoreografiya yo'nalishining boshlang'ich sinflarda klassik raqsni o'rgatish uslublari va pedagogik aspektlari

Qoraboyeva Dilaroboxon Rustamovna

Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi

“Xalq raqsi ijrochiligi” bo'limining mutaxassis o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xoreografiya yo'nalishining boshlang'ich ta'limida klassik raqsni o'rgatish usullari va pedagogik aspektlari ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, san'at sohasidagi yangi qaror va farmonlar va yaratilayotgan imkoniyatlar haqida, dars o'tish jarayondagi e'tiborli jihatlari, baholash tizimi haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Xoreografiya, akademiya, klassik raqs, aspekt madaniyat va san'at PQ 4584, PQ-4585, PF- 6000.

Har bir kunni yangiliklar, yangilanishlar, bilan kutib olayotgan, bugundan ko'ngli to'q, ertasiga esa katta umid va ishonchlar bilan qarayotgan yurtdoshlarimiz, o'z taraqqiyot yo'lini yangi bosqichiga dadil qadam qo'yayotgan, mustaqil davlatimiz, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich boshchiligida O'zbekistonning yangi, ochiq, demokratik va insonparvar qiyofasi yaratilmoqda. Jonajon xalqimizning ertaga emas, bugun baxtli yashashi uchun amalga oshirilayotgan yangidan yangi islohotlarning ta'sirini har bir yurtdoshimiz qatori oliy ta'limida mehnat qilayotgan ziyolilar, ta'lim tizimidagi ulkan o'zgarishlarni ko'rib, sezib turibdi. Nuroniy otaxon va onaxonlarimiz ta'biri bilan aytganda oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa o'n beshi yorug' bo'lganidek, hayot ham turli sinov va qiyinchiliklardan iborat ekanligini bugun barchamiz guvohi bo'lmoqdamiz. Buni biz butun



yer yuzi aholisini jiddiy tashvishga solgan xavf koronavirus pandemiyasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Afsuski, bu o‘tkinchi sinovlar bizga ham etib kelib, kutilmaganda hayot tarzimizni, odatlarimizni, bir maromda ketayotgan jarayonlarni o‘zgartirishimizga, yangi talab va shartlar asosida yashahga, mehnat qilishga va o‘qishga o‘rganishimizga to‘g‘ri keldi. Ayniqsa, bu xolat ta‘lim tizimiga ham o‘zining ta‘sirini ko‘rsatmay qo‘ymadi va mas‘uliyatni yanada kuchaytirdi. Xalqimiz va butun insoniyat boshidan kechirgan bu sinovli kunlarda yoshlarning uzluksiz ta‘lim olishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu bois hukumatimiz va davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan karantin davrining boshdanoq mamlakatimiz yoshlari ta‘lim olish jarayonlaridan uzilib qolmasliklari uchun barcha sa’y-harakatlar amalga oshirildi. Barcha ta‘lim muassasalari masofaviy ta‘lim berish jarayonida ishladi. Ammo barcha ta‘lim rahbariyati va malakali professor va ustozlar kelajak avlodimizga qulaylik yaratishda masofaviy bo‘lsada, ta‘lim berishda davom etdi. Ustozlar tomonidan mutaxassislik va nazariy ma‘lumotlarni televidenya, modul, telegram, video aloqalar, ZOOM orqali masofaviy darslar tashkillanib, har bir o‘quvchi, talaba o‘z telegram guruhlariga, modullarga vazifalarni joylashtirib borildi. Hech qaysi o‘quvchi yoki talaba nazardan chetda qolmadi. Bugungi ta‘lim tizimida mehnat qilayotgan ziyolilarning bunday shijoat bilan ishlashi, xalqni o‘tayotgan har bir kunidan rozi bo‘lib, ko‘ngli to‘q yashashlari uchun jon kuydirayotgan, yurtimizda har soxadagi kabi bizning san‘at soxasidagi bo‘lgan tubdan o‘zgarishlarga sababchi bo‘layotgan yurtboshimiz Shavkat Miromonovichning imzolayotgan qaror va farmonlaridir. O‘z navbatida, bizning ixtisoslashtirilgan san‘at maktablari, musiqa va san‘at maktablari ustozlari ham, yurt taraqqiyoti va ravnaqiga hissa qo‘shib, kelajakda etuk san‘at yulduzlarini tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Va bu maqsadi yo‘lida ko‘plab ustozlarimiz izlanishlar olib borib, o‘z maqsadlariga erishib kelmoqdalar. Har qanday yo‘nalishning rivojlanishida asosi bo‘lgani kabi bizning xoreografiya sohasining asosi klassik raqs fanidir. Klassik raqs fani esa, bo‘lajak raqqos yoki raqqosa, balet artisti yoki pedagog xoreograflar uchun eng muhim fanlardan biridir. Shu bois bu fanga katta e‘tibor berish, ta‘lim oluvchilarga bu fanga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish,



o‘quvchilarni muntazam ravishda o‘z ustilarida ishlashlari uchun ta’lim olishlari uchun sharoit yaratishimiz, dars mashg‘ulotlarini qiziqarli, mazmunli va eng muhimi foydali dars tuzilmalaridan foydalanishimiz va nafaqat o‘quvchi balki biz ustozlar ham doimiy o‘z ustimizda ishlashimiz va ilm olishimiz kerak. Bu borada esa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab, yurtimizda barcha sohalarda juda ko‘plab o‘zgarishlar bo‘lib yangi qaror va farmonlar imzolaniib , yetarlicha shart sharoitlar yaratilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Xoreografiya san’atining rivojlanishida, ta’lim oluvchilar yanada yetuk bo‘lib yetishishida, xoreografiya yo‘nalishining klassik raqs fani va ustozning dars o‘tish metodikasining usullari yuqori darajada bo‘lishining o‘rni katta. Ustozlarimiz doim takidlaganidek, klassik raqs fani xoreografiyaning barcha yo‘nalishining poydevoridir. Barcha sohadagi kabi san’at va madaniyatimiz sohasida ham o‘zgarishlar bo‘lib juda ko‘plab yo‘llar bosib o‘tildi. Shu kunga qadar hech bir soha vakillari chetda qolmadi. Bir qancha qaror va farmonlar ichida san’at sohasiga oid yangiliklar bo‘lib, qarorlar imzolandi. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda qadimiy va boy madaniy merosimiz, milliy o‘zligimiz, betakror qadriyat va an’alarimiz, madaniyat va san’atimizni qo‘llab-quvvatlanishi va rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilishi, halqimizning ma’naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda ahamiyatga ega bo‘lgan raqs san’atini har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni milliy va jahon raqs san’atining namunalaridan keng bahramand etish maqsadi yo‘lida raqs san’ati sohasida “ustoz –shogird” an’alariga asoslangan raqs maktablarini yaratish, xalqaro standartlarga muvofiq yuqori malakali mutaxassislar va kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatidan samarali foydalangan holda ilm –fanni jadal rivojlantirish, milliy raqsimizni yanada rivojlantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi va ularning ijrosi tegishli tashkilotlar tomonidan o‘z vaqtida amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga yorqin misol bo‘ladigan 2017 yil 31 –maydagi PQ -3022 sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillastirishga doir chora –tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 4-



fevraldagi PQ 4584 son “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda “Bahor” ansamblining qayta tiklanish hamda, PQ 4585–son “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Toshkent milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat oliy ta’lim muassasasi shaklida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida O‘zbekiston xoreografiya akademiyasini tashkil etilishi;

Toshkent davlat milliy raqs xoreografiya oliy maktabi tizimidagi Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktabini Akademiya tizimidagi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan Respublika ixtisoslashtirilgan san’at makta –internatga aylantirilish; 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab Buxoro, Qarshi, Namangan va Urganch shaharlarida Akademiya huzurida ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich raqs san’ati maktab internatlarini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilgani barcha milliy raqs sohasidagi ustoz va talabalarni birdek quvontirdi. Yurtboshimizning barcha sohalar qatori bizning sohaga ham qilgan katta e’tibori va bunday imkoniyatlar, bizning milliy raqs san’ati sohasida ijod qilayotgan san’atkorlar, ustozlar, ayniqsa yosh mutaxassislar va ijodkor yoshlarimizga keng yo‘l ochib berdi. Bugungi kunda, ko‘p asrlik boy va betakror madaniyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan milliy raqs san’atining xalqimiz ma’naviyati, badiiy–estetik qarashlarini yuksaltirish, yosh avlodni milliy qadriyat va an’analarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi o‘rni va hamiyati toboro ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 –maydagi PF 6000-sonli “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari ham barcha san’at ahlini birdek quvontirdi. So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, Yangi O‘zbekistonning tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol



integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innoatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu yo'lda esa ijrolarni ta'minlash maqsadida, o'quvchilar, talabalar, yosh kadrlarga yanada qulay bo'lishi uchun biz bilan hamkorlikda O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasi katta professor va malakali ustozlar tomonidan bir qator innoatsion uslubiy ishlar, turli xil uyushtirilgan "ustoz-shogird" an'analari yo'lga qo'yilgan, o'quv qo'llanmalar, adabiyotlar taqdim qilib kelinmoqda. Bu esa ushbu san'atni bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlarga mos holda rivojlantirish, milliy raqsning turli yo'nalish va namunalarini, mamlakatimizning turli mintaqalarida shakllangan mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodga bezavol etkazish hamda bu boradagi ta'lim-tarbiya, targ'ibot ishlarini kuchaytirishimiz, barchamizning o'z qo'limizda va qaror, farmonlarning amalda ham tadbir qilinayotgani yorqin misol bo'la oladi. Va bu borada xoreografiyaning asosiy fani, poydevori bo'lgan klassik raqs faniga e'tiborimizni qaratishimiz kerak.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bu fanning qanchalar muhim ekanligini ishlash jarayonimda va talaba bo'lganimda, o'z ishining yetuk mutaxassislari bo'lgan qadrlar ustozlarim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Qoraqalpog'iston xalq artisti, professor Kurkmas Sagatovich Sagatov hamda ajoyib shirinso'z Kalamkas Ibragimova Bayzakovna, kabi ustozlarimdan ta'lim olganimda, ularni dars o'tish metodlarini kuzatganimda va ular tavsiya qilgan kitoblarni o'qib chiqib tahlil qilganimda tushunib yetdim. O'rgan izlanishlarim va kuzatishlarim shuni ko'rsatdiki, klassik raqsni o'rgatishda xatoga yo'l qo'yimaslik, darsning tuzilishini tog'ri tanlash, mashg'ulotlarni o'quvchilarni imkoniyatidan kelib chiqib, oddiydan murakkablikgacha shoshmasdan etkazishimiz kerakligini tushundim. Avvallari klassik raqs darsida ustozlar bilan kim chiroyli kombinatsiyalar qo'yish ustida bosh qotirar edik. Ammo izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, darsning tuzilishi o'ta muhim va undagi ishlatilayotgan kombinatsiyalar qanchalar foyda va zararlarini tahlil qilib borishimiz jiddiy masala ekani ma'lum bo'ldi. Masalan, dastgoh oldidagi ekzersisda kombinatsiyalarning turliligidan, uning bajarilishi sanog'i, oddiyligi va



tanlangan musiqasi va uning o'ldhovi qanchalar muhim ekan. Bunga sabab malakali ustozlardan saboq olganimiz va o'z ustimizda doimiy ishlashimiz , o'quvchilarni o'zlashtirishlarini doimiy kuzatib borishimiz deb o'ylayman. Maqolamning maqsad va vazifasi. Maqolamning maqsadi, klassik raqs fanini boshlang'ich sinflarida o'rgatilishini, darsning to'g'ri va maqsadli taqsimlanishini rejalashtirilishi, mashg'ulotlarni qiziqarli olib borish ammo darsga jiddiy yondashishimiz o'ta muhimligini yoritib berish. Boshlang'ich sinflarda klassik raqsning asosiy vazifasi ta'lim oluvchini gavda , bosh,qo'l va oyoq holatlarini to'g'ri qo'yilishida bo'lsa, pedagogning pedagogik aspektlari tomondan ta'lim oluvchining o'z tanlagan yo'li va raqsga bo'lgan muhabbatini yanada oshirib borishdadir. Biz yosh mutaxassislar bu borada doimiy ravishda o'z ustimizda ishlashimiz, har tomonlama etuk mutaxassis bo'lishimiz va o'quvchilarimizga darsning tuzilishini qiziqarli va mazmunli olib borishimiz, doimiy ravishda dars jarayonida ham ammalliy, ham nazariy yondashishimiz fanga oid kitoblarni o'qib borishimiz o'ta muhim va kerakligini ko'rsatib berishdadir. Ammo N.I.Tarasovning o'z kitoblarida yozgan qarashlarida takidlaganidek, “ hech qanday kitob, xatto u juda foydali bo'lsa ham amalliy olib borishning o'nini bosa olmaydi”. Ya'ni kitobda o'qiganlarimizni albatta doimiy amalda qo'llab tursakgina o'z maqsadimizga erishamiz. Izlanishlarda qo'llangan metodologiya. Malakali ustozlar maslaxati, K.S.Sagatovning “Metodika prepodavaniya klassicheskogo tansa ”(Mujskoy klass) A.Y.Vaganovanning “Osnovi klassicheskogo tansa”, N.I.Tarasovning “Klassicheskiy tanes” shkola mujskogo ispolnitelstva,V.S.Kostravitskayaning “100 urokov klassicheskogo tansa” kitoblarida berilgan medodik maslaxatlariga tayangan holda va amalliy olib borilishi tadbiiq etilgan. “O'quv maqsadlariga qarab klassik raqsini o'qitishning eng samarali usullari aniqlandi. Klassik raqsni o'qitishning eng samarali usulini tanlash bugungi kunda xoreografiyada dolzarb masaladir. Klassik raqs xoreografik ta'limning asosi hisoblanadi. Klassik raqsni o'qitshda ma'lum bir tizimni o'ichiga oladi.Mavjud o'qitish usullarining xilma-xilligiga qaramay, o'qituvchi o'qitish samarasini doimiy kuzatib borishi kerak, usullari va ularga qo'yiladigan talablarga qarab, ularni o'zgartirmoq kerak. Pedagogik usullar ichki o'quv



jarayonini tashkil etish yo'li bo'lishi kerak.(K.S.Sagatov Metodika prepodavaniya klassicheskogo tansa. Mujskoy klass) Pedagogik aspektlar tomonidan, klassik raqs fanida ham innavasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Masalan, turli xil videokeysarlardan, ko'proq balet va o'z nufuziga ega bo'lgan xoreografiya akademiyalarining internet saytlari orqali joylanib boradigan dars mashg'ulotlaridan namunalari, raqslari, imtihon topshirish jarayonlarini ko'rsatish, erishgan yutuqlarini ko'rsatish orqali qiziqtirish,bundan tashqari bu yo'l bilan o'quvchida ko'rib o'rganish xotirasini ham kuchaytirish mumkin. Dsr jarayonida yangi peogogik texnologiyalaridan "Globoalfavit" metodidan foydalanib, o'quvchilarga o'yin darzida klassik raqs fanidan darslikda uchraydigan terminlarni yo'dlatish mumkin. Bu bilan nafaqat terminlarni yodlatasiz, balki darsingizni mazmunli, qiziqarli o'tishini, o'quvchilarni mustaqil fikrlashini ham o'stirib borishingiz mumkin. Dsr jarayonida ta'limning "INTROAKTIV" turi bo'yicha, o'quvchiga bir kunlik darsdagi biror bir mavzuni o'zi mustaqil o'tib ko'rishiga imkon berish, bunda o'quvchida darsi yaxshi o'zlashtirish, mas'uliyatli bo'lishni shakllantiradi. Doim ko'proq kitob o'qish va o'qigan kitoblarimizni bir biri bilan solishtirib, taxlil qilinib, pedagogning o'zining yangi metodlarini yaratish ustida bosh qotirishimiz kerak Bu borada esa, hozirgi kunda imkoniyatlarimiz keng. Sababi avvallari mutaxassislik fanlaridan o'zbek tilidagi kitoblar kam bo'lgan. Hozirda esa juda ko'plab kitoblar chop etilmoqda. Bu esa talabalar va yosh kadrlarni o'z ustilarida ishlashlarini unumini oshiradi. Bolalar musiqa va san'at maktablarida xoreografiya yo'nalishining boshlang'ich sinflarda klassik raqsni o'rgatish uslublari va pedogogik aspektlari Klassik raqs barcha raqs majmuasi uchun ta'limning asosi hisoblanadi. U o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini oshiradi, texnik ko'nikmalarini zarurlarini shakllantiradi va yuqori ijrochilik madaniyati manbai hisoblanadi. Bu esa uning asosiy tarbiyaviy qiymati.Dastur quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak. O'quv jarayoninig maqsadi o'quvchilarning tug'ma imkoniyatlarini bosqichma bosqich rivojlantirib borish ,ijro texnik ko'nikmalarini nazorat qilib turish,darslarning tizimli va muntazamligini ta'minlash, musiqalarni to'g'ri tanlash kerak. Ushbu shartlarga rioya



qilinmasa, klassik raqs darsi estetik ta'lim jihatdan o'z kuchini yo'qotadi. Boshlang'ich sinflarda oddiydan murakkablikga qarab, o'quvchilarni imkoniyatlaridan kelib chiqib o'rgatib boriladi. Dastlab, o'quvchilar barcha mashqlarni dastgohga qarab, bosqichma bosqich dastgohni bir qo'lda ushlab bajarish ko'nikmasini shakllantirib boriladi. So'nga zal o'rtasida dastgohda bajarilgan mashqlarni bajartirib ko'rish, boshidan boshlashni o'zida o'quvchilarda ifodaviylik, musiqaviylikni oshirib borish har bir kombinatsiyani o'quvchining imkoniyatidan kelib chiqib, darsni ehtiyotkorlik bilan oz ozdan o'quvchida ko'nikma hosil qildirib boriladi.

MAQSAD VA VAZIFALARI

Maqsadi:

- o'quvchining rivojlanish;
- Ijtimoiy moslashuv;
- ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni shakllantirish;
- dunyoqarashini kengaytirish;
- sog'lomlashtirish;
- o'quvchilarning harakatlanish apparatini raqs materialini bajarishga tayyorlash turli xil harakterli, turli janrli, turli xil texnik murakkablik darajalarini; -mehnatsevarlikni tarbiyalash; - ijrochilik madaniyatini tarbiyalash.

Vazifalarini anglash:

- xoreografiya mashg'ulotlariga qiziqishni rivojlantirish;
- raqs orqali o'z -o'zini ifodalash istagini rivojlantirish.

Rivojlanish:

- o'quvchining mayllari va qobiliyatini aniqlash;



- shaxsiy omillarning rivojlanishi: diqqat, xotira, fikrlash, tasavvur, faoliyat, mustaqil ishlash;

- tafakkurni faollashtirish, ijodkorlikni rivojlantirish;

- пластик ва хореографик хотирани ривожлантириш.

Motivatsion:

- jamoada qulay muhit yaratish: yaxshi niyat muhiti, o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligi. Ijtimoiy-pedagogik:

- jamoaga hurmatni kuchaytirish, kamharakat xissini shakllantirish va o'zaro yordam;

- rahbarlik va tashabbuskorlikni rivojlantirish, ijodiy hayotda faol ishtirok etish istagini rivojlantirish Jamoada:

- bag'rikenglik, tengdoshlari o'rtasida hurmat–ehtimom ko'rsatish;

- ma'naviy-ahloqiy meyorlarni tarbiyalash, ijtimoiy jihatdan o'z-o'zini anglashga intilish faol yo'llar, har qanday vaziyatda o'zini viqor bilan tuta olish;

- shaxsni oshkor qilish. O'rgatish:

- dasturni o'zlashtirish asosida o'quvchiga klassik raqs asoslarini o'rgatish, ko'maklashish;

- plastik ifodalash asoslarida o'qitish;

- musiqiy savodxonlik, ritmika, musiqiy ifodalilik asoslarini o'rgatish;

- ўқувчини рақс, анъана, костюм тарихи билан таништириш.

Tarbiyaviy:

- jamiyatda muloqot ko'nikmalarini va xulq madaniyatini tarbiyalash hamda jamoa ularning faoliyatini tashkil etish;



- mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirish va to‘siqlarni engishga intilish;
- kasbiy madaniyatini, o‘z taqdimot ishi natijalarini etika va ijrochilik estetikasini oshirish;

Estetik:

- ijodga mehrini tarannum etishni tarbiyalash
- nafosatli va tartibli bo‘lishni tarbilash

Sog‘lomlashtirish:

- Sog‘lom turmush tarzini olib borish istagini kuchaytirish
- maxsus mashqlar bilan jismoniy salomatlikni rivojlantirish
- jismoniy kamchiliklarni bartaraf etish
- asab tizimini mustahkamlash

1.1 Dastgoh oldidagi ekzersis tartibi (musiqiy o‘lchovi)

1. Demi -plie ba Grand- plie 4/4
2. Battements tendus 4/4
3. Battements jetes 4/4
4. Rond de jambe par terre 4/4
5. Battements fondu 4/4
6. Battement frappes 2/4
7. Battement releve lents 90 4/4
8. Grand battement 4/4



1.2 Zal oʻrtasidagi ekzersis tartibi (musiqiy oʻlchovi)

1. Demi -plie Grand- plie 4/4
2. Battements tendus 4/4
3. Battements jetes 4/4
4. Rond de jambe par terre 4/4
5. Battements fondu 4/4
6. Battement frappes 2/4
7. Battement releve lents 90 4/4
8. Grand battement 4/4

1.3 Allegro qism (kichik sakrashlar)

1. Temps leve 4/4
2. Pas eshappe 2/4
3. Changement de pied 2/4 1.

4. Yakuniy qism Ushbu qismida o'quvchilar bilan o'zaro muloqot qilinib, darsning qay darajada olib borilganligi haqida qisqacha savol-javob, tahlil qilinadi. O'quvchilarni baholab, uyga vazifa beriladi. Har bir darsdan so'ng albatta o'quvchilarni yutuq va kamchiliklari aytilishi lozim. Shunda o'quvchilarda mas'uliyat paydo bo'ladi. Pedagogning o'zidan kelib chiqqan holda baholashi mumkin. Ammo ehtiyotkorlik bilan ya'ni o'quvchiga psixologik jihatdan zarba bermasligi kerak. Ya'ni o'quvchi olgan baho zararga emas foydaga ishlashi o'ta muhimdir. O'quvchilarni baholash tizimi haqida N.I.Tarasov Klassicheskiy tanes mujskogo ispolnitelstva kitobida juda qisqa, aniq, puxta o'ylab chiqib yoritib bergan. Uning fikricha, baho shunchaki baho emas, u akademik ko'rsatkichi, har bir o'quvchining yanada



faol va ongli ishlashiga bo'lgan munosabatining samarali rag'batlantiruvchi vositadir. O'qituvchi o'z o'quvchilarining ilmiy faoliyati sifatiga javob beradi shuning uchun uni baholashda sifatiga ahamiyat berishi kerak. Baholash tizimi maxsus jadvalarga, jurnallarga belgilab boriladi. O'zlashtirishi yaxshi bo'lmagan o'quvchilar aniqlanib, ular bilan qo'shimcha dars mashg'ulotlari olib borish o'ta muhimdir. Biz yosh kadrlar shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz, biz ta'lim berayotgan yoshlarimizning qo'lidadir. Ularni kelajakda etuk mutaxassis bo'lishiga esa, biz pedagoglar sababchi bo'lishimiz yuqoriroq deb o'ylayman. Bu borada esa, xato baholash tizimida ham xatolarga yo'l qo'ymasligimiz muhimdir. Ushbu maqolamni yozishim va izlanishlarimdan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, klassik raqs xoreografiya ta'limining asosidir. Klassik raqsni o'rgatish ma'lum usullar tizimini o'z ichiga oladi. Klassik raqs darslarining metodikasi, darsning tuzilishi, uning davomiyligi, kombinatsiyalar yasash prinsipi, darsni baholash tadbirlarini o'tkazish shartlaridan iborat.

Klassik raqs asoslarini o'rganish-bu talab qilinadigan murakkab jarayon talabalardan doimiy mehnat, e'tibor, xotira va albatta iroda. Shuning uchun o'qituvchi muayyan harakat prinsipini aniq etkaza olishi, uning bajarish aniqligiga bog'liq. Mavjud o'qitish metodlarining xilma-xilligiga qaramay, o'qituvchi metodning o'qitish samarasini doimiy kuzatib borishi kerak va ularga qo'yiladigan talablarga qarab, ularni o'zlashtirib turishi kerak. Pedagogik metodlar ta'lim jarayonini tashkil etishning ichki usuliga aylanishi kerak. Albatta, klassik raqs rivojlanmoqda; o'qitish usullari takomillashmoqda, raqs texnikasi o'sib bormoqda. Jumladan, dars o'tish metodlarining zamonaviy tamoyillari asosida va sakrashlarga o'rgatishning yangi usullar mavjud. Klassik raqsni o'qitish tizimi o'zgarmas, bir marta va barcha uchun belgilangan deb hisoblanish kerak. Mavjud tajriba asosida o'qitishning pedagogik usullari, klassik raqs o'qituvchining amaliyoti bilan moslashtirilishi kerak. Eng muhimi Yurtboshimiz tomonidan bizga e'tibor kuchaygan bir vaqtda biz o'z ustimizda ko'proq ishlashimiz, doimiy izlanishda bo'lishimiz, kelajak avlodga ta'lim



berishda xatolarga yo‘l qo‘ymasligimiz o‘ta muhimdir. Men ishonamanki, bu maqolam kimgadir foydasi tegsa, yordamim tegkanidan hursand bo‘laman. Va bizga ta’lim bergan malakali ustozlarimizni metodlarini amalda ham qo‘llab, ularni ishonchlarini oqlab, huddi ular kabi yetuk mutaxassis bo‘lib, izlanishlarda davom etaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.S. Sagatov Metodika prepodavaniya klassicheskogo tansa (mujskoy klass) Методика преподавания классического танца (мужской класс) “Navro‘z” nashriyoti 2020
2. A.Ya. Vaganova Osnovi klasicheskogo tansa Izd.5.1980
3. N.I. Tarasov Klassicheskiy tanets mujskogo ispolnitelstva izd.3 2005 Sankt Petersburg Moskva Krasnodar
4. V. S. Kostrovitskaya 100 urokov klassicheskogo tansa (s 1 po 8 klass) urokov klassicheskogo tansa Ucheb. Metod. Posobi 2-e izd Dop - L 1981
5. Sh. M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib -intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi kerak – T.: O‘zbekiston, 2017.
6. Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz birga quramiz – T: O‘zbekiston , 2017.
7. Sh.M. Mirzayev Erkin va demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz . – T:O‘zbekiston , 2016.
8. www.garmonia.fili.narod.ru
9. www.plie.ru
10. www.Ledyah.Org.ru



INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective

Learning and Sustainable Innovation

Vol.2 №2 (2024). February

innovativepublication.uz



11. www.norma.uz
12. www.eduuz
13. www.studfiles.ru
14. www.dancerussia.ru